XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 11 - sentabr VI-64-89-4-58-K/23 Qamashi tuman hokimligi

Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining 2023- yil 4-iyuldagi VI-62-61-4-58-K/23-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi, Qamashi tumani hududidagi shahar va qishloqlar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 7-iyundagi yig‘ilishining B-1-1/22-son bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi, Qamashi tumani hududidagi shahar va qishloqlar

chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2023-yil 7-iyundagi yig‘ilishining B-1-1/22-son bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i J.Uralovning xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi VI-62-61-4-58-K/23-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi VI-62-61-4-58-K/23-son qaror 1 va 2 ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Qamashi tumani shahar va qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq;

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani qishloqlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari xaritasi 2- ilovaga muvofiq ma’qullansin.

5. Mazkur qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

6. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari Q.Xaydarov, H.Azizov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **M.Turopova**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023-yil 11-sentabrdagi
VI-64-89-4-58-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumani shahar, shaharcha va qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida ma’lumot

№	Shahar, shaharcha va qishloqlar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1	Chim qishlog'i	96482	13804,92
2	Jonbo'zsoy qishlog'i	53019	5603,19
3	Ko'kbuloq qishlog'i	355734	139235,93
4	Loyqasoy qishlog'i	40559	3927,77
5	Qamay qishlog'i	41964	6189,27
6	Qiziltepa qishlog'i	167569	42645,40
7	Qorabog' qishlog'i	85585	12043,25
8	Qoratepa qishlog'i	50210	8127,48
9	Rabot qishlog'i	67564	8916,83
10	Suvtegirmon qilshogi	41635	7353,62
11	To'qboy qishlog'i	45902	5872,08
12	Yortepa qishlog'i	35377	6729,10
13	Badaxshon shaharchasi	8368	265,910
14	Balandchayla shaharchasi	7415	178,30
15	Qiziltepa shaharchasi	10571	422,72
16	Qoratepa shaharcha	8771	317,25
17	Sarbozor shaharchasi	11226	337,74
18	Qamashi shahar	28473	2515,89
19	**Jami**	**1156424**	**264486,65**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023-yil 11-sentabrdagi
VI-64-89-4-58-K/23-son qaroriga
2-ilova

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

X A R I T A S I

